

**ADABIYOTNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O`RNI**

Uktamova Barchinoy Sherali qizi

O`zDJTU ingliz filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi

barchinoyuktamova00@gmail.com

+998770136406

Annotatsiya: Adabiyot inson hayotida chuqur tarbiyaviy va ma`naviy ahamiyatga ega.U o`tmish va bugunning ko`prigi sifatida insoniyat tarixini o`rganishda,jamiyatni tarbiyalash va kelajak avlodlar uchun ilmiy,madaniy meros yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.Adabiyot xalq hayotining o`ziga xos ifodasidir. Uning ildizi maqol,qo`shiq,doston,singari xalq og`zaki ijodi namunalari yuzasidan bildirilgan ilk mulohazalarga borib bog`lanadi.Ushbu maqolada adabiyotning inson hayotidagi o`rni,uning inson ma`naviyatiga ta`siri haqida fikr yuritiladi.

Kalit so`zlar: Adabiyot, ruhiyat, badiiy asarlar, hissiyot, tafakkur

Abstract: Literature has a deep educational and spiritual value in human life. As a bridge between the past and the present, it plays an important role in studying the history of mankind, educating society and creating a scientific and cultural heritage for future generations. is a characteristic expression. Its roots go back to the first comments on examples of folklore, such as proverbs, songs, epics, etc. This article discusses the role of literature in human life and its influence on human spirituality.

Key words: Literature, spirit, works of art, emotion, thought

Аннотация: Литература имеет глубокое образовательное и духовное значение в жизни человека. Будучи мостом между прошлым и настоящим, она играет важную роль в изучении истории человечества, просвещении общества и создании научного и культурного наследия для будущих поколений. выражение. Ее корни уходят в первые комментарии к образцам фольклора,



таким как пословицы, песни, былины и т. д. В статье рассматривается роль литературы в жизни человека и ее влияние на духовность человека.

Ключевые слова: Литература, дух, произведения искусства, эмоции, мысль

Adabiyot qadimdan inson ma'naviyatining asosiy bo'lagi bo'lib kelgan. U inson qalbini boyitib, uni go'zallikni his qilishga undaydi. Har bir inson adabiyot orqali hayot qadrini, unda yashash zavqini anglaydi. "Adabiyot" so'zi arab tilidagi "adab" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "chiroyli xulqlar" ya'ni odob, axloq, tarbiya va ilm ma'nolarini bildiradi. Bu so'z avval ilm-fan va madaniyatni ifodalashda ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik badiiy ijod bilan bog'liq tushunchaga aylangan. Adabiyot inson ruhiyatini aks ettiradigan, uni har qanday holatda ham to'g'ri yo'lga sola oladigan vositadir.

Adabiyot insonning his-tuyg'ularini, fikrlarini, hayotiy tajribalarini va dunyoqarashini aks ettiruvchi asarlardan iborat. Bu she'rlar, hikoyalar, romanlar, dostonlar va boshqa badiiy janrlarni o'z ichiga oladi. Badiiy adabiyot, badiiy asarlar insonlarga juda kuchli ta'sir ko'rsata oladigan ilohiy bir kuchdir. U inson ongini va his-tuyg'ularini tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Kitobxon kitob o'qiyotgan paytida, uning ichidagi insonlarning taqdirini nafaqat o'qiydi, balki ularning hayotida yashaydi ham, ularning har bir hissiyotiga sherik bo'ladi, yig'lasa yig'laydi, kulsa kuladi. Negaki, asar kitobxon ruhiyatining eng nozik nuqtalarigacha yetib boradi va uni larzaga keltiradi. Shu bilan birga, kitob ichidagi taqdirilar insonni o'ylashga, fikrlashga va kechayotgan voqealarni tahlil qilishga chorlaydi. O'quvchining qalbiga ta'sir qilmagan narsaning esa adabiyotga hech tegishliligi yo'q. Ernest Heminguey o'z tajribasidan kelib shunday deydi: "Faqat o'zing yaxshi o'rgangan, yaxshi biladigan narsalar haqida yozish, yozganda ham samimiy, rost yozish kerak; tasvirlangan holat inson qalbini o'rta yuborsin, voqelikni baholashga yordam bersin, o'quvchi boshidan kechirgan voqelikning bir qismiga aylanib qolsin".

Adabiyot inson tafakkurini rivojlantiruvchi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. U o'quvchini millatlar, madaniyatlar, hayotiy tajribalar bilan



tanishtiradi, muallifning tasavvur olamiga olib kiradi va unda ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Adabiy asarlarning badiiy tasvirlari va ramzlari o'quvchini har bir vaziyatga yangi nigoh bilan qarashga, unda sabr, bag'rikenglik va empatiya tuyg'usini shakllantirishga yordam beradi. Xuddi shuning uchun ham, adabiy asarlarni yosh avlodga tanitish, yoshlarni kitobxonlikka jalb qilish maqsadida, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan 2017-yilda "Yosh kitobxon" tanlovi joriy etildi. Bu tanlov ko'pgina yoshlarning kitob o'qishga, adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshirdi va ma'rifat yo'lga kirishiga turtki bo'ldi deb ayta olamiz.

Adabiyot insonni turli muammolarni o'rganishga va ularga ijodiy yechim izlashga o'rgatadi. Bu hayotning murakkab tomonlarini tushunishga yordam beradi. Buning isboti sifatida, Cho'lponning adabiyot haqidagi quyidagi so'zlarini keltirishimiz mumkin: "Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, qoralangan, o'chgan, majruh, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qarab singishgan, qora balchiqlarni tozalaydirg'on, o'tkir yurak kirlarini yuvadurg'on ma'rifat suvi, xiralagan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladurg'on buloq suvi bo'lg'onlig'idan bizga g'oyat kerakdir".

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish lozimki, badiiy adabiyotning inson hayotidagi o'rnini juda yuqori. Inson ardoqlab keladigan eng noyob hislar, insonparvarlik, do'stlik mehr-muruvvat, adolat, shavqat sevgi-muhabbat singari o'lmas tuyg'ular kishi ongida, ruhida mujassamlashadi va adabiyotga oshno insonlar qalbiga ko'chib o'tadi. Bu tuyg'ular esa, yurak, qalb orqali seziladi, his qilinadi. Shuning uchun badiiy asarlar, she'riyat adabiyotning ajralmas, tarkibiy qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1) **To'rayeva B., Ko'chimov U.**

Adabiyotshunoslik [Matn]: darslik / To'rayeva b., Ko'chimov U.

-Toshkent: "MALIK PRINT CO", 2022.-192 b.

2) **Adabiyotshunoslikka kirish.** Xudoyberdiyev Erkin; O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. -T. Iqtisod-moliya, 2007.-304 b.



3) Kun.uz. (2018, 15-may). Yosh kitobxon tanlovi haqida ma'lumot. Kun.uz.
<https://kun.uz/89257082>

4) **Umurov H.**

Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik/Mas'ul
muharrir: B. Valixojayev.-T.A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.-264 b.